

UDK: 81.139

*Najmuddinova N.U. – Samarqand davlat chet tillar instituti
M-2104 guruh magistri
Samarqand, O’zbekiston*

**ITALYAN TILIDA ARTIKLLARNING QO’LLANILISHIDAGI
FONOTAKTIK VA GRAMMATIK O’ZGARUVCHANLIK
HODISASINING DIALEKTLAR MISOLIDAGI IZOHI**

Annotasiya: ushbu maqolada aniq misollarda, adabiy italyan tilida artiklning ishlatalishidagi o’zgaruvchanlik hamda tartibsizlik hodisalarini tushuntirish uchun dialektlarning qo’llanilish qonuniyatlardan foydalanish imkoniyati ko’rib chiqiladi: adabiy tilning o’ziga xos xususiyatlari toskan dialekti fonotaktika qonunlarining, boshqalari esa shimoliy yoki janubiy dialektlarning xususiyatlari bilan bog’liq.

Kalit so’zlar: o’zgaruvchanlik; italyan adabiy tili; toskan dialekti; fonotaktika; artikl; undosh tovush uzayishi; o’xshashlik; ambisillabik element; sinkopa.

*Najmuddinova N.U. - master of Samarkand State Institute
of Foreign Languages
Samarkand, Uzbekistan*

**EXPLAINING THE PHENOMENON OF PHONOTACTIC AND
GRAMMATICAL VARIATION IN THE USE OF ARTICLES IN
ITALIAN BY DIALECTAL EXAMPLES**

Annotation: This article discusses the possibility of using dialects to explain variation and disorder in the use of the article in literary Italian using a

concrete example: features of the phonotactic laws of literary language are related to the features of the Tuscan dialect , and others are related to the features of the northern or southern dialects.

Keywords: variability; Italian literary language; the Tuscan dialect; phonotactics; article; consonant sound prolongation; similarity; ambilillabic element; sink.

Italian tilini o'rganish jarayonida talabalar deyarli barcha o'quv adabiyotlarida faqat aytiladigan, lekin tushuntirilmaydigan bir qancha grammatik hodisalarga duch kelishadi. Ammo bu hodisalarni nafaqat tushuntirish mumkin, balki ularni anglash aniq bir tartibga solingan sistemani yaratishga imkon beradi. Gap ba'zi fonotaktik va grammatik o'zgaruvchanlik hodisa haqida boryapti. Aslida, italyan tili kabi tilning tuzilish qonuniyatları o'zida uzoq madaniy va adabiy qayta ishlash natijasini aks etadi. Bu jarayonda davlatning turli xil viloyatlari aholisining ishtiroki, uning asosida yotgan toskan dialekti mazmuniga murojaat qilish, o'zgacha qurilgan fonotaktik prinsiplarga ega boshqa dialektlar bu tilgan qo'shimcha unsurlarni olib kirdi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, Italiyada til me'yorini belgilashda bir nechta katta shaharlar xronologik tarzda o'z ta'sirini ko'rsatgan: Florensiya – madaniyat poytaxti va adabiy tilning tug'ilish joyi, Rim – siyosiy va boshqaruv markazi, Milan – mamlakatning iqtisodiy markazi. Agar kichik intelektual elita qatlaminis hisobga olmaganda, o'qimishli kishilarining asosiy qismi adabiy tilda emas aksincha tegishli dialekt zonalarining fonotaktika qonuniyatları aks ettirilgan italyan tilining regional variantlarida so'zlashishadi [1].

Shundan kelib chiqqan holda, ushbu maqolaning maqsadi – italyan tiling dialekt shartliligi nuqtai nazaridan ba'zi bir hodisalariga tushuncha berish va shu orqali o'qituvchiga talabalar tomonidan beriladigan savollarga nisbatan o'zini kuchsiz his etmaslikka imkon beradi. Ayniqsa, biz bilamizki, chet tilini

mukammal o'zlashtirish uning tuzilishi va qo'llanilishini chuqur o'rganish asosidagina amalga oshadi.

Grammatika kursining tushunarsiz bo'lgan kirish mavzularidan biri – bu artikl, u fonotaktik o'zgarishlar misolida qo'llaniladi: talabalar qaysi so'zning boshida u yoki bu artikl formasi qo'llanishini yod olishlari zarur. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik uchun artikl formasining to'g'ri ishlatilishi hamon hal qilib bo'lmas masala hisoblanadi. Agar variant so'zning undosh yoki unli tovush bilan boshlanishiga ko'ra tanlanishi qiyinchilik tug'dirmasa (la donna, l'amica), har xil holatdagi undosh tamoyillarning qarama-qarshiligi bilan variantni tanlash ko'pincha mexanik aqliy harakat darajasida qoladi va avtomatik mahorat darajasiga yetib bormaydi, ehtimol bu uning tushuntirilmaganligi sabablidir. Bu muammo aniq artiklning mujskoy roddagi: birlikda *il/lo*, ko'plikda *i/gli*, shuningdek, *bello*, *quello* sifatlarining aniqlanib kelayotgan otlar oldidan qo'llanilishi bilan bog'liq. Bundan tashqari artiklning uchinchi varanti ham mavjud, *I'* – unli harf bilan boshlanadigan otlar oldidan ishlatiladi. *Il* va *lo* variantlarining qo'llanilish asosida turli xil fonotaktik qonuniyatlat yotadi: birinchisi oddiy unli harflar bilan boshlanuvchi so'zlarda (il duomo, il tappo, il prete, il biondo va h.k.), ikkinchisi esa *s* bilan yasalgan undosh harf birikmalarida (lo sposo), *z* [ts], *ps* [ps], *gn* [ñ] (lo gnocco, lo zio, lo psicologo) qo'llaniladi. Ularning etimologiyasiga murojaat qilish, nega bitta butun shakl *illo* dan, ikkita variant: *il* va *lo* ning kelib chiqish sababi haqida ma'lum bir tushuncha bermaydi. Shubhasiz, bu qo'llanilish undoshning uzun-qisqaligida, ya'ni jarangiz *s* tovushi, qisqa jarangli *s* tovushidan farqli ravishda, italyan tilida hamda markaziy region dialektlarida doimo uzun talaffuz qilinadi. Bundan tashqari **z**, **gn**, tarkibida *s* bo'lgan chetdan o'zlashtirilgan **x**, **ps**, tovushlari ham doimo uzun talaffuz qilinadi va oldidan *lo/gli* artikllarini qo'llashni talab etadi [2].

So'z boshida keladigan uzun undosh artikl bilan birikganda ambisillabik elementga ya'ni talaffuz jihatdan ikkita bo'g'inga ham taaluqli tovushga

aylanadi, masalan: *loz-zio*, *loñ-ñocco*, *los-sposo*, bu holat esa faqatgina unli harf ishtirokidagina bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham, il-(lo) pezzo da ***lo*** tushib qolishi, il-lo(s) sposo da esa aksincha ***il*** tushib qolishi kuzatiladi, ya'ni ikkinchi holatda sinkopa fonetik o'zgarishi mumkin emas, sababi bu yerda unli tovush artikulyar tayanch vazifasini bajarayapti va birinchi bo'g'in ***il*** tushib qolyapti [3].

Ko'plik shakl ***i/gli*** ga kelsak, bu yerda ***gli*** ning so'z boshidagi uzun undosh harf bilan birgalikdagi qo'llanilishi, hozirda ham toskan og'zaki nutqida ishlatiladigan so'z boshidagi tayanch unlidan (*iscola* 'scuola', *istrada* 'strada', *iscritto* 'scritto') artiklni farqlash uchun deb tushuntirish mumkin. Bu holatda unli bilan boshlangan so'zlarning artikl bilan ishlatilishiga (*istrucci – gli strucchi*) imkon yaratadi. *Gli* variantining unli tovush oldidan ishlatilishi, shuningdek, unlilar orasidagi bo'shliqni bartaraf etish zarurati tufayli yuzaga kelgan: ***i occhi*** > ***[l'l'(i)okki]***. Umuman olganda, artikllarning ishlatilish qonuniyati ko'p jihatdan toskan dialekti asosida yaratilgan. Bu holat shimoliy dialektlarda undosh tovushlarning qisqaligi hamda tayanch unli tovushlarning yo'qligi tufayli uchramaydi: sababi venetsian dialektida ***lo***, ***gli*** o'mida ***il***, ***i*** ishlatiladi: *un spegasso*, *un steco*, *i sposi*. Shuningdek, janub dialektlarida ham bu holat barcha undoshlarning uzunligi tufayli kuzatilmaydi, masalan napoletan dialektida: ***(l)u mmare***, ***(l)u vvicu***, ***(l)u sposu***, ***(l)u ttiempu*** [4].

Artikl va shunga o'xshash ba'zi tushunarsiz bo'lган mavzularning dialekt orqali mana shunday usulda tushuntirilishi nafaqat italyan tili o'rgatilishini yengillashtiradi, balki uning qiziq va esda qolarli bo'lishini ta'minlaydi. O'qitishning bunday tushuntirish usuli nafaqat bizda, balki umuman italyan tili o'rganilishida samarali bo'lishi mumkin.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. МЕЛЬНИКОВ Г. П. Системная типология языков. М.: Наука, 2003.

2. ROHLFS G. Grammatica storica della lingua italiana e dei suoi dialetti.
Fonologia. Torino : Giulio Einaudi Ed. s.p.a., 1966.
3. ROHLFS G. Grammatica storica della lingua italiana e dei suoi dialetti.
Morfologia. Torino : Giulio Einaudi Ed. s.p.a., 1966.
4. STORIA della lingua italiana. L'italiano nelle regioni. Milano: Garzanti Ed.
s.p.a., 1996. Vol. 1, 2.